



## MUALLIFLIK HUQUQI VA UNING HIMOYASI

<sup>1</sup>Sabina Toxirova Zoxidjon qizi,

<sup>2</sup>Bahromova M.B.

<sup>1</sup>Toshkent davlat yuridik universiteti

Magistratura bosqichi talabasi

E-mail: sabinatoxirova99@gmail.com

Tel: 94 286 72 03,

<sup>2</sup> Ilmiy rahbar: Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD).

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7321908>

### ARTICLE INFO

Received: 04<sup>th</sup> November 2022

Accepted: 12<sup>th</sup> November 2022

Online: 14<sup>th</sup> November 2022

### KEY WORDS

Ommaviy axborot vositalari, mualliflik huquqi, Mutlaq huquqlar, intellektual mulk, mulkdorlik prezumpsiyasi

### ABSTRACT

*Mazkur maqolada ommaviy axborot vositalariga doir mualliflik huquqi haqida asosiy ma'lumotlar berildi va uning himoyasi borasida yurtimizda va jahon mamlakatlarida qabul qilingan qonunlar va amaliy ishlar taqqoslash usuli bilan o'rganilib chiqildi. Xorij mamlakatlar tajribasi asosida O'zbekistonda mualliflik huquqiga oid muammolarni hal etish uchun kerakli talab va takliflar taqdim etildi.*

Bugungi kunda ommaviy axborot vositalari inson hayotida katta rol o'ynab kelmoqda. Shu jumladan, hozirda ommaviy axborotga doir turli xil yangi qonunlar yaratilib bormoqda. O'zbekistonda OAV va ularda faoliyat ko'rsatayotgan ijodkorlarning erkin, keng qamrovli, oshkora faoliyat ko'rsatishlari uchun milliy qonunchilik bazasi shakllandi. Qabul qilingan qonunlar va qonunosti hujjatlar sohadagi munosabatlarni tartibga solishni maqsad qiladi. Bu masalaga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 3-avgust kuni ijodkor ziyolilar bilan bo'lib o'tgan uchrashuvda alohida to'xtalib o'tadi. Jumladan, Prezident o'zi ma'ruzasida axborot sohasida yangi-yangi ijodiy g'oya va tashabbuslar bilan yashash, izlanish ruhi yetishmayotgani, yengil-yelpi kitoblar, sayoz, oldi-qochdi gazeta-jurnallar, tele-radiostansiyalar ko'payib borayotgani va ayniqsa, bunday holatlarga prinsipial baho berilmayotgani, ularni bartaraf etish bo'yicha har

tomonlama asoslangan amaliy takliflar o'rta qo'yilmayotganini keskin va asosli tanqid qiladi. Ma'ruzada, shuningdek mavjud kamchiliklarni bartaraf etish, sohani yangi sifat bosqichiga ko'tarish, fuqarolarning hayotiy muammo va ehtiyojlarini hal etish, ayniqsa ommaviy axborot vositalarining fuqarolarning axborot olish va tarqatish bo'yicha qonuniy huquq va erkinliklarini ta'minlash, davlat organlarining aholi bilan ochiq, to'g'ridan-to'g'ri muloqotini kuchaytirish borasida ustuvor vazifalar belgilab berildi. [1] Ommaviy axborot vositalari sohasi doirasida yaratilgan qonunchilik asoslari sirasiga mualliflar huquqi va manfaatlarini himoya qilish ham kiradi. Shu nuqtai nazardan demokratik jamiyatda huquqning barcha sohalari qatorida mualliflik huquqini takomillashtirish milliy qonunchiligimizdagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi.



## METODOLOGIYA

Avvalambor, mualliflik huquqi haqida to'xtalib o'tsak.

Mualliflik huquqi bu – fan, adabiyot va san'at asarlarini yaratish, ya'ni mazkur sohadagi insonlarning ijodiy faoliyati natijalari bilan bog'liq huquqiy munosabatlarni boshqaruvchi fuqarolik huquqiy institutidir. [2]

Mualliflik huquqi tushunchasi huquq obyektini sifatida XVIII asr boshida paydo bo'lib, uning asosiy maqsadi – insonning intellektual faoliyatini himoya qilish va taqdirlash hisoblanadi. Bevosita muallifning huquqiga daxldor hujjatga bo'lgan ehtiyoj xalqaro miqyosda XIX asrning oxirlarida Yevropada vujudga keldi. Buning asosiy sababi xalqaro doirada mualliflarning huquqlarini buzilishlari bilan bog'liq edi. Shu bois bunday huquqbuzarliklarni oldini olish maqsadida, Yevropadagi noshirlar va mualliflarning talablari bilan 1886 yilda tuzilgan "Adabiy va badiiy asarlarni muhofaza qilish haqidagi" Bern (Shveysariya) konvensiyasi qabul qilindi.

Ushbu xalqaro hujjat mualliflar huquqlari, ularning adabiyot va badiiy asarlarini imkon qadar samarali va bir xil ravishda himoya qilishni maqsad qilib qo'ygan. Bern konvensiyasi universal huquqiy hujjat bo'lib, fan, adabiyot va san'at asarlariga bo'lgan mualliflik huquqlarini muhofaza qilishga qaratilgan. Mazkur xalqaro me'yoriy hujjat asosida keyinchalik intellektual mehnatning samaralarini muayyan yo'nalishlar va sohalari bo'yicha qator xalqaro aktlar qabul qilindi. 1952- yil 6-sentabrda Jenevada qabul qilingan "Butunjahon mualliflik huquqi haqida"gi konvensiya, 1961-yil 26-oktabrda Rimda qabul qilingan "Fonogramma ishlab chiqaruvchilar, ijrochi-artistlar,

fonogramma yaratuvchilar va teleradioeshittirish tashkilotlari manfaatlarini himoya qilish haqida"gi konvensiyasi, 1996-yil 20-dekabrda Jenevada "BIMTning mualliflik huquqi bo'yicha shartnomasi" hamda shu sanada "BIMTning ijrolar va fonogrammalar bo'yicha shartnomasi" va boshqa hujjatlar ana shular jumlasidandir.

O'zbekiston Respublikasi 2005-yilda "Adabiy va badiiy asarlarni muhofaza qilish haqida"gi 1886-yilda qabul qilingan Bern konvensiyasiga 159 – a'zo davlat sifatida kirdi va mazkur xalqaro hujjatni ratifikatsiya qildi. Mamlakatimizda Bern konvensiyasining amalga kiritilishi Fuqarolik kodeksi hamda O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlari to'g'risida"gi 1996 yilda Qonunning qabul qilinishi bu yo'nalishdagi ishlar ko'lamini yanada kengaytirdi, mualliflar va ularga tenglashtirilgan boshqa huquq egalari uchun ham katta imkoniyatlar yaratdi. 2006-yil 20-iyulda yangi tahrirda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlari to'g'risida"gi Qonuni ham xalqaro huquqiy me'yorlarga to'la mos keladi.

Shuni alohida aytish kerakki, Mualliflik va turdosh huquqlar buzilishi holatlarini aniqlash ancha murakkab jarayon hisoblanadi. Aynan bir shaxs tomonidan yaratilgan mualliflik huquqi obyektini boshqa shaxs tomonidan huquq egasining ruxsatisiz o'z nomidan ishlab chiqarilishi, chop etilishi yoki sotuvga qo'yilishi kabi holatlarda birinchi navbatda muallifning o'zi xabardor bo'lishi va tegishli vakolatli organga murojaat qilishi bilan huquqlari himoya qilinishi mumkin. Bunday huquq buzilishlaridan yana biri kontrafakt tovarlar ishlab chiqarilishi jarayoni



hisoblanadi. huni aytish joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2021-yil 20-avgustda imzolangan 709-sonli "Intellectual mulk obektlarining huquqiy muhofazasi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" gi Qonuniga muvofiq mualliflik huquqiga oid bir nechta normativ-huquqiy hujjatlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Mazkur qonunga muvofiq muallifga mualliflik huquqi va turdosh huquqlari buzilgan taqdirda, bunday huquqbuzarlikni sodir etgan shaxslardan zarar qoplanishi o'rniga bazaviy hisoblash miqdorining 20 baravaridan 1000 baravarigacha miqdorda tovon to'lashini talab qilish huquqi berildi. Mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni buzish holatlari uchun jarima miqdorini oshirish ham bunday huquqlar buzilishini birmuncha kamayishiga olib kelishi mumkin. [3]

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik kodeksiga 2019-yilda kiritilgan o'zgartirish natijasida yangi 171-modda kiritildi. Ushbu moddaga ko'ra, asarlarning va turdosh huquqlar obyektlarining kontrafakt nusxalarini, shuningdek ularni takrorlash hamda tarqatish uchun foydalaniladigan materiallar va uskunalarni hamda boshqa huquqbuzarlik sodir etish qurollarini musodara qilib, fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan besh baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa besh baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi deb belgilab qo'yilgan. Agar ushbu holat ma'muriy jazo qo'llanganidan so'ng 1yil ichida qayta sodir etilsa jarima miqdori fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining

besh baravaridan o'n baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa o'n baravaridan yigirma baravarigacha miqdorda jarima belgilanadi. [4]

Dunyo bo'yicha eng rivojlangan davlatlardan biri-AQSHda Mualliflik huquqi va uning himoyasiga doir qonun va normalarni o'rganib,eng maqbullarini yurtimiz qonunchiligiga kiritish maqsadga muvofiq bo'ladi.AQSh Mualliflik huquqi to'g'risidagi qonunni yangilash boshqa yurisdiksiyalarda qanday himoyalar mavjud bo'lishi mumkinligi haqida o'ylashdan oldin mualliflar, avvalo, Qo'shma Shtatlardagi himoya doirasini tushunishlariga ishonch hosil qilishlari kerak. Qo'shma Shtatlar mualliflik huquqi to'g'risidagi qonun 1976-yildagi mualliflik huquqi to'g'risidagi qonun bilan tartibga solinadi. AQSh qonunchiligiga ko'ra, asl mualliflik asarlarida mualliflik huquqi himoyasi asar aniq ifoda vositasida mustahkamlanganidan keyin mavjud bo'ladi. Ya'ni, mualliflik huquqi "qog'ozga qalam qo'yish" va original asar yaratishda mavjud.

Mualliflik huquqi AQSh Mualliflik huquqi idorasida ro'yxatdan o'tkazilishi mumkin bo'lsa-da, asarni ro'yxatdan o'tkazish to'liq ruxsat etiladi. Bundan tashqari, agar muallif mualliflik huquqini asar nashr etilishidan oldin yoki asar birinchi nashr etilganidan keyin uch oy ichida ro'yxatdan o'tkazsa, u holda muallif huquqbuzarlik to'g'risidagi da'vo arizasida qo'shimcha chora-tadbirlarni, ya'ni advokatlik to'lovi va mukofotni talab qilishi mumkin.

Shuningdek, muallif asarga "mualliflik huquqi to'g'risida eslatma" qo'yishi shart emas. Mualliflik huquqi to'g'risidagi bildirishnoma "mualliflik huquqi" so'zi yoki mualliflik huquqi belgisi, birinchi nashr qilingan yil, mualliflik huquqi egasi



(masalan, © 2012 Bradley Arant Boult Cummings LLP) shaklida bildirishnomadir. Biroq, nashr etilgan asarlarga mualliflik huquqi to'g'risidagi bildirishnoma qo'yish yaxshi amaliyotdir va mualliflik huquqi Mualliflik huquqi idorasida ro'yxatdan o'tganmi yoki yo'qmi, buni amalga oshirish mumkin. [5]

AQShda intellektual mulk huquqi to'g'risidagi qonunlar keng qamrovli bo'lib, hokimiyat va huquqni muhofaza qiluvchi idoralar har qanday huquqbuzarlik bilan kurashishga qodir. AQSH da xorijiy va mahalliy huquq egalari uchun mualliflik huquqi va turdosh huquqlar himoyasi yuqori standart darajasida hisoblanadi.

AQSHda 1927-yil 1-yanvargacha chop etilgan asarlar jamoat mulki hisoblanadi. Ushbu qonunning 408-moddasi a bandiga ko'ra AQSH da mualliflik huquqini himoya qilish uchun asarni ro'yhatdan o'tkazish talab etilmaydi. Ushbu qonunga 1993-yilda mualliflik huquqini himoya qilishning texnik vositalarini chetlab o'tishni taqiqlovchi norma kiritilgan.

## **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, OAV faoliyatiga daxldor bo'lgan qonunchilik tizimida mualliflik huquqi bir necha davlatlar hududida bir xilda amalda bo'lishi bilan ajralib turadi. Shu bois mualliflik huquqini himoya qilish maqsadida xalqaro me'yorlarga asos solingan. Mualliflik

huquqining chegarasi yo'q. U bir davlat hududida yaratilgan asar boshqa bir davlat hududida foydalanilganda, asarning daxlsizligi, muallifga berilgan barcha huquqlari saqlangan holda himoyasini ta'minlashga qaratilgan davlatlararo munosabatlarda ham namoyon bo'ladi. Shuningdek, respublika hududida yashab, ijod qilgan muallifning asaridan jahon mamlakatlarida ham foydalaniladi.

Mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni himoya qilish birinchi navbatda bu boradagi ta'lim va tarbiyaga bog'liq hisoblanadi. Aynan aholimizning asosiy qatlami jumladan mualliflik huquqi bilan bevosita shug'ullanuvchi shaxslar ham huquq va majburiyatlarini to'la bilmasligi bu sohada qonun buzilishi holatlari ko'p uchramoqda.

Shunga qaramasdan, yurtimizda ham boshqa rivojlangan davlatlar kabi mualliflik huquqi asar yaratilganda avtomatik tarzda himoyalani huquqiga ega bo'ladi. Bundan tashqari, mualliflik huquqining himoyasini yanada rivojlantirish uchun AQSH va boshqa davlatlar kabi Mualliflik huquqini buzgan shaxslar uchun jarima miqdorini yanada oshirish, respublikada mualliflik va turdosh huquqlarni himoya qilish jamiyati faoliyatini oshirish va hozirgi zamonaviy davrda rivojlangan davlatlar kabi blokcheyn texnologiyasini joriy etish kabi vazifalar amalda keng qo'llanilishi lozim.

## **References:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga [www.uza.uz](http://www.uza.uz) 2017 yil 3-avgust
2. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
3. "Intellektual mulk obektlarining huquqiy muhofazasi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" gi Qonuni 2021-yil 20-avgust
4. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik kodeksi 2019-yil
5. United States Copyright Office, <http://www.copyright.gov/> Archived January 5, 2008,



6. O'zbekiston Respublikasi "Mualliflik huquqi va Turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonuni 2006-yil 23-mart
7. Nasriyev I. "Mualliflik huquqi mazmuni va shaxsiy nomulkiy xuquqlar himoyasi", T., 2003.
8. "Mualliflik huquqi asoslari" (PDF). [www.copyright.gov](http://www.copyright.gov). AQSh mualliflik huquqi boshqarmasi. 2019-yil 20-fevral
9. <https://www.bitlaw.com>
10. <https://uz.wikipedia.org>